XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 18 - sentabr VI-64-99-5-79-K/23 Navoiy shahar hokimligi

Navoiy shahar mahalliy budjetining 2023-yil 11-maydagi VI-59-59-5-79-K/23-sonli qaroriga asosan ajratilgan mablag‘ga kiritilayotgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasida belgilangan tartibda mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlarini moliyalashtirish bo‘yicha takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navoiy shahar hokimligiga ajratilgan mablag‘larning iqtisod qilingan qismi hisobidan "Nuroniy" jamg‘armasi shahar bo‘limiga mablag‘ ajratish hamda 2023-yilning o‘tgan davrida mahalliy budjetning xarajatlarini tashkilotlar kesimida tasdiqlangan prognozlarga kiritilgan o‘zgartirishlar miqdori to‘g‘risida shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Xusanovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy shahar mahalliy budjetining 2023-yil 11-maydagi VI-59-59-5-79-K/23-sonli qaroriga asosan ajratilgan mablag‘ga kiritilayotgan o‘zgartirishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Navoiy shahar mahalliy budjetining 2023-yilda aniqlangan qo‘shimcha manbalari hisobidan 2-ilovaga muvofiq mablag‘ ajratilsin.

4. Navoiy shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tashkilot rahbarlari, shahar hokimligi ajratilgan mablag‘lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

maqsadli foydalanilishini, xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat’iy amal qilinishini ta’minlasin.

6. Shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Xusanov), shahar g‘aznachilik bo‘limi (F.Xidirov)ga ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

7. Navoiy shahar hokimligi devonxona bo‘limi mudiri (J.Xotamov)ga mazkur qaror nusxasini manfaatdor tashkilotlarga yuborish vazifasi yuklatilsin

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilib borish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Sharipov) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O‘.Haqberdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyaga raislik qiluvchi **A.Azimov**

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023-yil 18-sentabrdagi
VI-64-99-5-79-K/23-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahar mahalliy budjetining 2023-yil 11-maydagi VI-59-59-5-79-K/23-sonli qaroriga asosan ajratilgan mablag‘ga kiritilayotgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida

T/R	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Kamaytirilayotgan mablag‘ *(ming so‘mda)*
1	**Navoiy shahar hokimligi**	Xizmat safari xarajati uchun	8 300
2		E-qaror ijro xarajatlari uchun	8 900
Jami			**17 200**

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2023-yil 18-sentabrdagi
VI-64-99-5-79-K/23-son qaroriga
2-ilova

Navoiy shahar mahalliy budjetining 2023-yilda aniqlangan qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

T/R	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratilgan mablag‘ *(ming so‘mda)*
1	**Navoiy shahar hokimligi**	O‘zbekiston Respublikasi Prizdentining 2023-yil 11-martdagi PQ-92-sonli qaroriga asosan “Nuroniy” jamg‘armasi Navoiy shahar bo‘limiga o‘tgazib berish uchun	17 200
Jami			**17 200**